Qurbon hayiti munosabati bilan mahalliy yo‘nalishlarga bayram chegirmasi

2023 6 Iyun

2023-yilning 8-iyunidan boshlab Uzbekistan Airways aviakompaniyasi tomonidan Qurbon hayit bayrami kunlari, ya’ni, shu yilning 28-iyunidan 2-iyuligacha amalga oshiriladigan barcha mahalliy reyslarning aviachiptalariga 50% chegirma taqdim etiladi.

Aviachiptalarni arzon narxlarda sotib oling va Qurbon hayitini oilangiz va do‘stlaringiz davrasida kutib oling. Uzbekistan Airways: dunyoni yaqinlashtirib!

Chegirmadan foydalanishning shartlari:

1. Aviachiptalar sotuvi muddati 08.06.2023 dan 02.07.2023 gacha;
2. Tashuv sanasi: 28.06.2023 dan 02.07.2023 gacha;
3. Taqdim etiladigan chegirma miqdori:

- kattalar uchun tarifdan – 50%;
- 2 yoshgacha va 2 yoshdan 12 yoshgacha bo‘lgan salonda joy egallovchi bolalar uchun – bolalar tarifiga mos ravishda chegirma miqdori kattalar tarifining – 50% ni tashkil qiladi);
- chegirma salonda joy egallamaydigan va 2 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun amal qilmaydi;

4. Aviachipta qaytarilganda/qayta bronlashtirilganda/qayta rasmiylashtirilganda tarifga taqdim etilgan chegirma aviachiptani qaytarish/qayta bronlashtirish/NO-SHOW uchun undiriladigan yig‘imlarga nisbatan qo‘llanilmaydi. Bolalar uchun belgilangan tartibda (25% chegirma bilan) undiriladi;
5. 28.06.2023 dan 02.07.2023 gacha amalga oshiriladigan reyslarga sotib olingan aviachiptalar qayta rasmiylashtirilsa yoki qayta bron qilinsa, tarifga chegirma qo‘llanilmaydi;
6. 03.07.2023 dan boshlab qisman foydalanilgan aviachiptalar chegirmadan foydalangan holda qayta rasmiylashtirilgan/qayta bron qilingan taqdirda, aksiya

davomida amalga oshiriladigan qatnovlarda 2-segmentga chegirma qo‘llanilmaydi;

7. Chegirma faqat aksiya davriga to‘g‘ri keladigan aviaqatnovlar uchun qo‘llaniladi;
8. Aviachiptalarni chegirma bilan aviakompaniyaning veb-saytida, “Uzbekistan Airways Sales” filiali va uning agentlaridan faqat O‘zbekiston fuqarolari sotib olishlari mumkin;
9. Chegirmalarni birlashtirish taqiqlanadi.

Aksiyasi doirasida aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy www.uzairways.com sayti, UzAirways ilovasi orqali, shuningdek, Uzbekistan Airways Sales filialida yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilish mumkin.